

## О'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH OMILLARI

*Toshtemirov Nazirjon, Abdirasulov Bekzod, Ahmedov Shohjahon*  
*Qo'qon universitetining Mehmonxona va turizmni boshqarish yo'nalishi*  
*2-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasi rivoji uchun qilinayotgan va qilinishi kerak bo'lgan ishlar yuzasidan izlanishlar olib borilgan. Yurtimizda ushbu soha qanday rivoj topayotgani va qanday ishlar amalga oshirilayotganligiga to'xtalib o'tilgan. Bir yil hisob kitob qilinib, O'zbekistonga qancha tursit tashrif buyurganligi sarhisob qilindi. Qaysi tarixiy joylarga qancha turist tashrif buyurgan va qaysi tomonlarimiz ularga manzur kelganligi haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston turizm sohasida dunyodagi o'rni tanqidiy tahlil qilingan...

**Kalit so'zlar:** Turist, servis, infratuzilma, infrastruktura, ichki turizm, tashqi turizm, aviakassa, aeroport, temiryo'l, mehmonxona va boshqalar.

Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo bo'yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan.

Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko'rish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

### **Turizmning samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda o'z aksini topgan:**

2015 yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o'ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin.

### **150-o‘rin O‘zbekiston uchun aslo xos emas**

Afsuski, O‘zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko‘rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo‘yicha kengashi (BTSC) tomonidan berilgan bahoga ko‘ra, O‘zbekiston sayyohlar tashrifi bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o‘rinni egallaydi.

Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o‘zgarish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog‘liq.

Turizm bo‘yicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingida dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyohlik maskani qayd etilgan bo‘lib, ushbu ro‘yxatda Qozog‘iston 85-o‘rin, Qirg‘iziston 116-o‘rin, Tojikiston 119-o‘rinni egallagan, O‘zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida eng oxirgi o‘rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan.

Yaqinda rasmiy saytlardan birida 2017 yilning birinchi yarmida yurtimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani, bu ko‘rsatkich 2016 yilga qaraganda 17 foizga oshgani haqidagi maqolaga ko‘zim tushdi. Nazarimda, ushbu raqamlarda biroz mubolag‘a bordek. Chunki o‘zim aynan sayyohlik sohasida ishlayotganim bois, shunday fikrdaman. Buning sabablarini maqolam davomida ko‘rsatib o‘tishga harakat qilaman. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni ohanrabodek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak?

O‘zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko‘pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo‘la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o‘tgan yildagidan biroz ko‘paygan bo‘lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o‘tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo‘la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

Raqamlarda mamlakatimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Agar mamlakatimizda asosiy sayyohlik mavsumi mart oyining o‘rtalarida boshlansa va dastlabki mavsum yakuni iyun oyi so‘ngiga qadar bo‘lsa, shu davr mobaynida shuncha sayyoh kelib ketishini tasavvur qilish qiyin.

Qolaversa, bizda mehmonxonalar yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo'lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4.260 tani tashkil etar ekan. Bizda esa bu ko'rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past, ya'ni, yurtimiz bo'yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat.

### **Turizm davlat rahbari e'tiborida**

Joriy yilning 22 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:

«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim». Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni sohada uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida turizm haqida so'z yuritir ekan, bunday serdaromad soha rivoji e'tibordan chetda qolib kelayotgani, uning O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi zarurligini alohida ta'kidladi.

### **Turist — investitsiya degani**

Prezidentimiz dunyoning 33 ta mamlakatida O‘zbekiston elchixonalari faoliyat ko‘rsatayotgan elchilarga qarata qilgan onlayn murojaatida O‘zbekistonga xorijiy investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo‘natishga e‘tibor berishni ta’kidladi. Ya’ni, turist ham investitsiya degani, degan g‘oyani ilgari surdi.

Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar qatorida turizmga ham katta e‘tibor qaratishi bu sohada ko‘zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. O‘zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak.

Hozirgacha xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston haqida ko‘proq ma’lumotlarni targ‘ibot qilishda oqsoqlikka yo‘l qo‘yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O‘zbekiston haqida aholida yetarlicha ma’lumot yo‘q. Ular aynan turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.

Shu sohada xizmat qilayotganim bois, ko‘plab xorijiy sayyohlar bilan suhbatda bo‘laman. Qolaversa, Yevropa mamlakatlarida ijodiy uchrashuvlarda ishtirok etib kelaman. Aynan shunday uchrashuvlarda ko‘plab shu kabi ko‘plab fikrlar bildiriladi.

### **Yevropaliklarning O‘zbekiston haqidagi tasavvurlari**

2014 yildan boshlab o‘z hisobimdan Germaniya va Shveytsariya davlatlarida madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy tadbirlar uyushtirib kelyapman. 2017 yilning bahor va kuz oylarida ham ana shu faoliyatimni davom ettirib, «O‘zbekiston – Buyuk ipak yo‘lining marvaridi» loyihasi doirasida Germaniyaning 27 ta shahrida tadbir o‘tkazdim. Unda 1000 nafardan ortiq olmoniyalik ishtirok etishdi. Uchrashuvlarda O‘zbekiston, uning shonli o‘tmishi, qadriyatlarini, urf-odat va ana-analari, me’moriy obidalarga boy shaharlari haqida so‘zlab berdim. Tadbir so‘nggida ochiq muloqotlar bo‘lib o‘tadi. Ana shunday muloqotlar davomida ayrim germaniyaliklar yurtimiz haqida umuman boshqacha tasavvurda bo‘lganliklari haqida o‘z fikrlarini bildirishdi.

Ular Yevropa mamlakatlarining ommaviy axborot vositalari, xususan, radio, televideniye, gazeta va jurnallar hamda internet nashrlarida O‘zbekiston haqida ma’lumot deyarli yo‘qligi, bori ham salbiy ruhda yozilganini bildirishdi va bu albatta, juda achinarli hol.

Yevropaliklarning aksariyati O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegaradosh mamlakat bo‘lgani bois sayohat qilish uchun juda xavfli hudud, deb hisoblashadi. Eng fojiali tomoni shundaki, aholining ayrim qatlamlari O‘zbekistonni hali ham Rossiyaga tobe’ mustamlaka mamlakat, deb bilishar ekan.

Qariyb bir yarim oy davomida bo‘lib o‘tgan tadbirlar davomida Germaniyaning o‘ndan ortiq nufuzli televideniye va radiolarida ko‘rsatuv va eshittirishlar, shuningdek, 30 dan ortiq bosma nashrlarda O‘zbekiston haqida ijobiy fikrlar bildirgan maqolalar chop etildi.

Dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur barpo etgan qudratli Mavorounnahr saltanatining dovrug‘i o‘rta asrlarda butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Shunday ekan, o‘sha saltanatning bugungi zamonaviylik kasb etgan ko‘rki va tarovatini yanada kengroq targ‘ib qilish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, xorijlik sayyohlarni yanada kengroq jalb etish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

### **Turizmni rivojlantirishga doir talab va takliflar**

Yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Bunday ijobiy o‘zgarishlar, rivojlanishni yangi bosqichga ko‘tarish uchun, hammamiz o‘z vazifamizni chin yurakdan ado etishimiz, fidoyi bo‘lishimiz lozim. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar sonini oshirish borasida soha mutaxassisi sifatida takliflarim quyidagicha:

- Turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlari yengillashtirilib, jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirish. Chunki turpaketlar narxi oshgan sayin, yurtimizga keladigan sayyohlar soni ham pasayib boradi. Buning natijasida ular ancha arzon narxlarga ega bo‘lgan boshqa mamlakatlarga borishni afzal ko‘rishadi.

- «O‘zbekiston havo yo‘llari» bilan kelishgan holda, aviabiletlni onlayn xarid qilishni yo‘lga qo‘yib, shaffof onlayn xizmat ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish taklifi ham juda dolzarb masala. Rivojlangan mamlakatlarda aviakassa tushunchasi kundalik hayotda hech qachon ishlatilmaydigan so‘z. Turizm taraqqiy etgan biror bir davlatda hech kim aviakassaga borib aviachipta xarid qilmaydi. Biror mamlakatga borgisi kelgan odam uyini tark etmagan holda hamma ishlarini kompyuterdan turib bajaradi. Ko‘pgina yevropaliklar mendan: «Nega sizlarda «O‘zbekiston havo yo‘llari» rasmiy veb-sahifasidan onlayn chipta sotib olishning imkoni yo‘q?», deb so‘rashadi. Agarda reys amalga oshmay qolsa, aviakompaniya veb-sahifasida bu haqda hech qanday ma'lumot berilmaydi. Menimcha, agarda bu yo‘nalishda ham islohotlar olib borilsa, yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning soni keskin oshadi.

- «O‘zbekiston temir yo‘llari»da ham biletlarni onlayn sotib olish tizimini yana ham mukammallashtirilsa, nur ustiga a'lo nur bo‘lardi. Qolaversa, «Afrosiyob» tezyurar poyezdiga yirik sayyohlik guruhlariga biletlarni sotib olish ancha mushkul ish. 40 kun qolganda tizimda biletlarni sotib olish imkoni bo‘ladi. Lekin kassaga borsang, biletlar soni allaqachon cheklangan.

- Yaqinda Toshkent shahridagi Islom Karimov nomli xalqaro aeroportga Frankfurtdan uchib keldim. Ahvol ilgariga nisbatan ancha yaxshilangan. Navbatda ko'p turmaysiz, chet el fuqarolariga alohida xizmat ko'rsatuvchi darcha mavjud, umuman olganda, muhit ancha ijobiy holatda. Lekin jomadoningni naq bir soat kutasan. Xudo ko'rsatmasin, Frankfurt reysi bilan bir vaqtda Rossiya va Turkiya reyslari ham qo'nsa, urdi xudo... Sayyohlarning aksariyati «olijanob», naq ikkita reys chiqib bo'lgach, keyin chiqishadi. Shuning uchun sayyohlar uchun samolyotdan tushgan zahoti alohida yashil yo'laklar yaratilsa va ular qanaqa reys bir vaqtda kelishidan qat'i nazar, tezroq aeroportni tark etishga imkoni bo'lsa, ushbu sohani rivojlantirishda ancha ijobiy natijaga erishgan bo'lar edik.

- Men shu Vatanni sevib ardoqlovchi barcha fidoyi yurtdoshlarim singari O'zbekistonni rivojlanishi tarafdoriman va bunda, albatta, yurtimiz tinchligi hamma narsadan ustun, deb bilaman. Bu borada mamlakatimizda barcha chora-tadbirlar ko'rilgan. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga bir davlatdan bizning yurtimizga chegara orqali o'tayotganda ular uchun ham alohida tizim yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni, ularni cho'chitmasdan tekshiruvdan o'tkazib, ozroqqina xushmuomalalik bilan chegaradan o'tkazish.

- O'zbekistonni turistik davlat sifatida yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan soha mutaxassislari bilan hamjihatlikda O'zbekiston to'g'risida bitta ixcham «sayyohlar uchun qo'llanma» tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, arzon narxda yoki agarda imkoni bo'lsa, bepul chet sayyohlik firmalariga tarqatish. (Har gal Yevropada bo'lsam, albatta kitob do'konlarida soatlab vaqt o'tkazaman, afsuski O'zbekiston to'g'risida birorta sifatli fotoalbom yo'q. Butun dunyo mamlakatlari (mubolag'asiz) to'g'risida kitoblar mavjud. Albatta O'zbekiston to'g'risida sayyohlar uchun qo'llanmalar 3–4 ta bor, lekin uni o'zbeklar emas, yurtimizga kelib ketgan sayyohlar yoki chetdan kelgan soha vakillari o'zi bilganicha yozishgan).

- O'zbekiston haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan fotoalbomni turizm sohasi mutaxassislari bilan hamkorlikda (ularning g'oyalari bilan) nashrga tayyorlab, turli tillarda yuqori sifatda chop etish. Uning narxi qimmat bo'lmasligi zarur va O'zbekistonda barcha kitob do'konlari hamda sayyohlar tashrif buyuruvchi do'konlarda sotishni yo'lga qo'yish. Bu loyiha ustida ijodiy guruhim bilan hozirda ishlamoqdaman.

- Yurtimiz, urf-odat va an'alarimiz, milliy qadriyat va boy tarixiy merosimiz haqida hujjatli va badiiy filmlar konkursi e'lon qilinsa va eng saralarini rag'batlantirib, ular yaratgan filmlarni ingliz, nemis va boshqa tillarga dublyaj qildirib, xalqaro konkurslarda qatnashsak, sayyohlar soni oshishi tayin.

- Yilning eng go'zal va tartibli xonadoni, ko'chasi, mahallasi, qishlog'i, tumani, shahri, viloyati ko'rik tanlovlari e'lon qilinsa va har yili ularni rag'batlantirish yo'lga

qo'yilsa, bizning tanti va tirishqoq yurtdoshlarimiz o'z yashab turgan joyini yaqin yillarda «jannat»ga aylantirib yuborishi aniq. Rivojlangan Yevropa davlatlarida bu juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xususan, Germaniyada har yilgi tanlovda ko'p joylar mahalliy aholi tashabbusi bilan obodonlashtiriladi. Shuning uchun Germaniyaning qaysi qishlog'i yoki shahriga borsang, ko'zing quvonadigan darajada hamma joyni bezab qo'yibdi. Bu esa, o'z navbatida, sayyohlarni o'ziga jalb etishi tayin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sara Landini. Travel and Tourism Contracts: Design of Sustainable Tourism Systems. Antezza. 2013. (electron version) <https://docenti.unimc.it/g.vulpiani/teaching/2020/22763/files/textbooks1/s.-landini-travel-and-tourism-law>
2. Morgan Westcott. Introduction to Tourism and Hospitality in BC. Capilano University. 2020. (electron version <https://opentextbc.ca/introtourism> )
3. Manila declaration on world tourism. 1980 <https://www.univeur.org/cuebc/downloads/PDF%20carte/65.%20Manila.PDF>
4. The Hague Declaration on tourism. 1989 <https://www.univeur.org/cuebc/downloads/PDF%20carte/68.%20The%20Hague.PDF>
5. United Nations World Tourism Organization (UNWTO) website <https://www.unwto.org>
6. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019. <https://www.lex.uz/docs/-4428097>
7. "O,,zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to,,g,,risida"gi 5781-sonli Prezident farmoni. 13.08.2020. <https://lex.uz/docs/-4474527>